

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrilloevna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR

PROFILAKTIKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI 213-222

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО

ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА 223-233

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI:

NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA")..... 234-241

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdorovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR

VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL

VA TEVARAK-ATROF 242-246

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT

HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV

HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI 247-251

Temple Chimunya Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS

IN CONCRETE 252-265

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING

HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH

SSENARIYLARI 266-271

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING

IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI 272-277

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK

ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI 278-283

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY

FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... 284-289

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK

FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI..... 290-294

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA

UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH 295-300

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

THE IMPACT OF AN INNOVATIVE APPROACH ON THE CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS AND EDUCATORS

Berdiyeva Nilufar

Independent researcher at the International Nordic University,
Lecturer at the Department of Psychology and Preschool Education

Abstract. The modern education system requires future teachers and educators to possess not only professional knowledge but also creative thinking and the ability to adapt to pedagogical challenges. This article examines the significance of innovative approaches in the professional training of future educators and analyzes their influence on the development of creative competence. It is argued that educational practices based on innovation foster independent thinking, creative problem-solving, and a conscious attitude toward pedagogical activity. Special attention is given to the use of modern educational technologies as an effective means of unlocking creative potential. The article concludes with practical insights and recommendations aimed at improving the quality of teacher education.

Keywords: creative potential, educational technologies, innovative activity, professional adaptability, modernization of education, independent thinking.

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

Xalqaro Nordik Universiteti mustaqil izlanuvchisi,
"Psixologiya va maktabgacha ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

Email: n.berdiyeva@nordicuniversity.org

<http://www.orcid.org/0009-0005-0573-1923>

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim tizimi bo'lajak pedagog va tarbiyachilardan nafaqat kasbiy bilim, balki yangicha fikrlash, ijodkorlik va pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan yondashuvni ham talab etmoqda. Ushbu maqolada innovatsion yondashuvning bo'lajak pedagog va tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligida tutgan o'rni hamda uning ijodiy kompetensiya rivojiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak mutaxassislarda mustaqil fikrlash, kreativ yechimlar ishlab chiqish va pedagogik faoliyatga ongli yondashish kabi muhim sifatlarni shakllantirishi asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarishning samarali omili sifatida talqin etiladi. Maqola yakunida innovatsion yondashuvni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir amaliy xulosalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: kreativ salohiyat, pedagogik texnologiyalar, innovatsion faoliyat, kasbiy moslashuvchanlik, ta'limni modernizatsiyalash, mustaqil fikrlash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N32>

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida kechayotgan jadal islohotlar pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga yangicha talablarni qo'yimoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagog va tarbiyachilardan faqat nazariy bilimlar emas, balki ta'lim jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarga moslashuvchan yondasha olish, mustaqil fikrlash va ijodiy yechimlar ishlab

chiqish qobiliyati talab etilmoqda.[4-5:2b] Shu bois, pedagoglarni tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish masalasi bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Zamonaviy ta'lim muhitida innovatsion yondashuv pedagogik jarayonni faollashtirish, talabalarning bilish faolligini oshirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.[1-2:2b] Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak pedagog va tarbiyachilarda yangicha fikrlash, pedagogik jarayonga ijodiy yondashish, muammoli vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish kabi sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ularning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Maktabgacha ta'lim tizimi doirasida faoliyat yurituvchi pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.[3-4:2b] Chunki bolalar bilan ishlash jarayonida har bir pedagogdan pedagogik vaziyatlarni noan'anaviy yondashuv asosida hal qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish talab etiladi. Shu jihatdan, bo'lajak pedagog va tarbiyachilarni tayyorlashda innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada innovatsion yondashuvning bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rnini nazariy jihatdan tahlil qilinadi hamda zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda ushbu jarayonni takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar ilgari suriladi. [2-5:2b]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik faoliyatni kompetensiyaviy asosda rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar masalasi pedagogika fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda innovatsion yondashuv ta'lim jarayonini yangilash, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish hamda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar innovatsion yondashuvni nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki pedagogik fikrlash uslubini o'zgartirish, ta'lim subyektlarining faolligini oshirish bilan bog'liq jarayon sifatida ko'rsatadilar.[1-3:3b] Bir qator ilmiy ishlarda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning bilish faolligini kuchaytiradi, o'quv jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptiradi va kasbiy refleksiyaning shakllantirishga xizmat qiladi. Ijodiy kompetensiya masalasiga bag'ishlangan ilmiy manbalarda ushbu tushuncha pedagogning kasbiy faoliyatida yangicha yondashuvlarni qo'llay olish, ta'lim jarayonini kreativ tashkil etish hamda tarbiyaviy vazifalarni samarali hal qilish qobiliyati bilan izohlanadi. Ayrim mualliflar ijodiy kompetensiyani pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlarning integratsiyalashgan ko'rinishi sifatida baholab, unda kreativ fikrlash, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik va pedagogik improvizatsiya muhim o'rin tutishini qayd etadilar. Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuv va ijodiy kompetensiya o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Biroq aksariyat ishlarda ushbu masala umumiy pedagogik kontekstda yoritilgan bo'lib, aynan bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi nuqtai nazaridan chuqur tahlil yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur holat innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ta'sirini maxsus tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.[2-7-9:3b]

Muhokama. O'tkazilgan kuzatish va tahlillar shundan dalolat beradiki, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ta'lim faoliyatini yangicha mazmunda tashkil etishga yo'naltirilgan yondashuvlar bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday yondashuvlar o'quv jarayonini faollashtirish bilan birga, talabalarning bilimlarni tayyor shaklda qabul qilishdan voz kechib, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirishga xizmat qiladi. [1-4:3b] Natijada, bo'lajak mutaxassislar ta'lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etib, o'z kasbiy imkoniyatlarini anglash va rivojlantirishga intiladi. Innovatsion xarakterga ega bo'lgan ta'lim jarayoni talabalarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va kasbiy vaziyatlarga ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bunda innovatsion yondashuv o'quv mashg'ulotlarini faqat texnologiyalar bilan boyitish emas, balki pedagogik vazifalarni muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish, talabalarning fikrini rag'batlantirish va reflektiv faoliyatni kuchaytirish orqali namoyon bo'ladi. Shu tariqa, ijodiy kompetensiya shaxsiy tajriba va amaliy faoliyat bilan uyg'un holda rivojlanadi.

An'anaviy o'qitish shakllariga nisbatan innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning pedagogik vaziyatlarga munosabatida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Xususan, talabalarda pedagogik muammolarni noan'anaviy usullar orqali hal etish, ta'lim jarayonini kreativ rejalashtirish va o'z pedagogik qarashlarini asoslab bera olish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida mustaqil va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorligini oshiradi.[3-5-9:4b] Shuningdek, tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ta'siri faqat texnologik vositalardan foydalanish bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, mazkur yondashuv pedagog va talaba o'rtasida ochiq muloqot va hamkorlik muhitini yaratish, talabalarning shaxsiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda ularning o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali yanada samarali natijalarga olib keladi. Bunday muhitda bo'lajak pedagog va tarbiyachilar o'z kasbiy rolini chuqur anglab, ta'lim jarayoniga ongli va mas'uliyatli yondashishni o'rganadi. Olingan natijalar ilgari olib borilgan tadqiqotlarda ilgari surilgan ilmiy xulosalar bilan uyg'unlashadi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, pedagogik jarayonni modernizatsiyalash ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi va ta'lim subyektlarining faolligini oshiradi. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu qarashlarni bo'lajak pedagog va tarbiyachilar tayyorlash jarayoni misolida aniqlashtirib, innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyani shakllantirishdagi amaliy ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Umuman olganda, muhokama qilingan natijalar innovatsion yondashuvni pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga izchil va tizimli ravishda joriy etish zarurligini ko'rsatadi. [8-12:4b] Chunki aynan shu yondashuv bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni zamonaviy ta'lim talablariga mos, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion yondashuvni ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash va uni amaliyotga tatbiq etish pedagogik ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur tadqiqot innovatsion yondashuvning bo'lajak pedagog va tarbiyachilar tayyorlash tizimidagi funksional ahamiyatini ochib berdi. Olib borilgan tahlillar natijasida innovatsion yondashuv pedagogik jarayonni faqat yangilash vositasi sifatida emas, balki bo'lajak mutaxassislarning ijodiy kompetensiyasini tizimli shakllantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Ushbu holat innovatsion yondashuvga nisbatan mavjud

qarashlarni kengaytirib, uni kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etish zarurligini ko'rsatadi.[1-3-4:4b] Bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasi innovatsion yondashuv ta'sirida bosqichma-bosqich rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Xususan, ijodiy kompetensiya tarkibiy qismlarining shakllanishi innovatsion yondashuvning mazmuni, ta'lim muhiti va pedagogik hamkorlik darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlanib, ushbu bog'liqlik pedagogik jarayonda hisobga olinishi lozimligi ta'kidlandi. Muhim ilmiy yangiligi shundaki, innovatsion yondashuv bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda alohida omillar majmuasi sifatida emas, balki yagona tizimli model doirasida qaraldi. Ushbu model ijodiy kompetensiyani shakllantirishda ta'lim mazmuni, metodlar va reflektiv faoliyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida innovatsion yondashuvdan foydalanishda individual va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi.[5-8-9:4b] Bu esa bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etish uchun qulay pedagogik sharoit yaratish imkonini beradi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim faoliyatining bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasiga ta'siri tizimli ravishda o'rganildi. Olingan natijalar innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiya rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

1. Ijodiy kompetensiya darajalarining qiyosiy tahlili

Tadqiqot davomida bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasi boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalar bo'yicha baholandi. Baholash innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlardan oldin va keyin amalga oshirildi.

1-jadval

Bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiya darajalaridagi o'zgarishlar

Ijodiy kompetensiya darajasi	Tajriba boshida (%)	Tajriba yakunida (%)
Past daraja	42	18
O'rta daraja	38	46
Yuqori daraja	20	36

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni natijasida past darajadagi ko'rsatkichlar sezilarli kamaygan, yuqori darajadagi ijodiy kompetensiyaga ega talabalar ulushi esa ancha oshgan. Bu holat innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatadi.[2-6:5b]

2. Ijodiy kompetensiya tarkibiy qismlarining rivojlanish dinamikasi

Tadqiqotda ijodiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari alohida tahlil qilindi:

kreativ fikrlash

muammoli vaziyatlarda yechim topish

pedagogik tashabbuskorlik

reflektiv faoliyat

2-jadval

Ijodiy kompetensiya tarkibiy qismlarining rivojlanish ko'rsatkichlari

Tarkibiy komponentlar	Tajriba boshida	Tajriba yakunida
Kreativ fikrlash	Past	O'rta-yuqori
Muammo yechish ko'nikmalari	O'rta	Yuqori
Pedagogik tashabbuskorlik	Past	O'rta
Reflektiv faoliyat	O'rta	Yuqori

Mazkur natijalar innovatsion yondashuv ijodiy kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlariga kompleks ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va reflektiv faoliyat ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatildi.

3. Innovatsion yondashuv va ijodiy kompetensiya o'rtasidagi bog'liqlik

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ta'sir mexanizmi sxematik tarzda ifodalandi.

1-sxema

Innovatsion yondashuvning ijodiy kompetensiyaga ta'sir mexanizmi

Innovatsion ta'lim yondashuvi



Faol va muammoli o'quv muhiti



Mustaqil fikrlash va tashabbuskorlik



Kreativ faoliyat va refleksiya



Ijodiy kompetensiyaning rivojlanishi

Sxemadan ko'rinib turibdiki, innovatsion yondashuv ta'lim jarayonini faollashtirish orqali bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi hamda ularning kasbiy kompetensiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.[1-7-10:6b]

4. Natijalarning umumiy tavsifi

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni:

- ❖ bo'lajak pedagog va tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi;
- ❖ an'anaviy ta'lim shakllariga nisbatan samaraliroq natija beradi;
- ❖ talabalarning kasbiy faoliyatga ongli va ijodiy yondashuvini shakllantiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, innovatsion yondashuv pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmi hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa sifatida, innovatsion yondashuvni bo'lajak pedagog va tarbiyachilar tayyorlash jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish nafaqat ijodiy kompetensiyani rivojlantirishga, balki pedagogik ta'lim sifatini oshirish, ta'lim amaliyotining zamonaviy talablarga moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo'lib, innovatsion pedagogik modellarni ishlab chiqishda muhim manba bo'la oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvni rivojlantirish uchun bo'lajak pedagog va tarbiyachilarni ta'lim muassasalaridan boshlash va ijodiy

kompetensiyalarini shakllantirish uchun yangi texnologiyalar joriy etish lozim. Hozirgi paytda pedagoglarda muammoni hal qilishi va unga kreativ yechim berish qobiliyatlari yetishmaydi. Bu o'z-o'zidan rivojlanib kelayotgan yosh avlodni ham ijodiy qobiliyatlarini susaytiradi. Innovatsion yondashuv bu pedagoglar faoliyatini bir qancha oshirib beradi va pedagoglar faoliyatini samaradorlik bilan ta'minlaydi. Ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlarning faoliyatini rivojlantirish va ish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv asosida ijodiy kompetensiyalarni rivojlanishi muhimdir. Shuningdek, bu tadqiqot pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvning ta'siri haqida ilmiy qarashlarni yanada chuqurlashtiradi va kelgusida innovatsion metodlarning pedagog kadrlar tayyorlashdagi rolini kengaytirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Raximova, N. A. (2021). *Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim jarayonida ijodiy yondashuv*. Toshkent: Fan va texnologiya. <https://library.ziyonet.uz>
2. Qodirova, F. R. (2020). Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati. *Pedagogik ta'lim*, 4, 45–49. <https://pedagogika.uz/journal>.
3. Хуторской, А. В. (2017). *Компетентностный подход в образовании*. Москва: Юрайт. <https://urait.ru>
4. Fullan, M. (2016). *The New Meaning of Educational Change* (5th ed.). New York, NY: Teachers College Press. <https://www.tcpres.com>
5. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. San Francisco, CA: Jossey-Bass. <https://www.wiley.com>
6. Tursunov, S. N. (2019). *Maktabgacha ta'limda pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish*. Toshkent: O'qituvchi. <https://arm.natlib.uz>
7. Сластёнин, В. А., & Исаев, И. Ф. (2019). *Педагогика: инновационная деятельность учителя*. Москва: Академия. <https://academia-moscow.ru>
8. Беспалько, В. П. (2018). *Слагаемые педагогической технологии*. Москва: Педагогика. <https://elibrary.ru/item.asp?id=36718945>
9. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). *Effective Teacher Professional Development*. Palo Alto, CA: Learning Policy Institute. <https://learningpolicyinstitute.org>
10. Robinson, K. (2011). *Out of Our Minds: Learning to Be Creative*. Oxford: Capstone Publishing. <https://www.wiley.com>
11. Yuldasheva, N. Sh. (2022). Ijodiy kompetensiyani shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining roli. *Ta'lim va tarbiya*, 2, 67–71. <https://scienceweb.uz>
12. Загвязинский, В. И. (2020). Педагогические инновации и творчество учителя. *Образование и наука*, 22(3), 9–25. <https://doi.org/10.17853/1994-5639-2020-3-9-25>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).